

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI**

DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 368.5(575.1):330.3**

Qo‘ldoshev Ilyos Shuxratovich

**O‘ZBEKISTONDA AGROSUG‘URTALASH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Ixtisoslik: 08.00.07-Moliya, pul muomalasi va kredit

08.00.04–Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun bajarilgan**

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: i.f.f.d (PhD), dotsent., I. G‘. Kenjayev

Toshkent – 2025 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA AGROSUG‘URTALASH AMALIYOTINI NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	11
§1.1. Sug‘urta tizimi va ishlab chiqarish tarmoqlarini sug‘urtaviy himoyalashning mazmun-mohiyati	11
§1.2. Agrosanoat majmui korxonalarida agrosug‘urta faoliyatining obyektiv zaruriyati va uning ilmiy asoslari.....	27
§1.3. Agrosug‘urtalash amaliyotining o‘ziga xos-xususiyatlari va amalga oshirish tartibi.....	34
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	38
II BOB. AGROSUG‘URTALASH AMALIYOTINING HOZIRGI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY MUAMMOLARI.....	40
§2.1 O‘zbekistonda agrosug‘urtalash amaliyoti tahlili.....	40
§2.2 Agrar sohadagi xatarlarni sug‘urtalashning jahon tajribasi.....	60
§2.3 Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urtalashda risklarni boshqarish.....	74
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	83
III BOB O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA AGROSUG‘URTALASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	86
§3.1 Agrosug‘urtalash xizmatlarini takomillashtirish.....	86
§3.2 Agrar sohada indeksli va turli risklarga ega sug‘urta maxsulotlari taraqqiyot istiqbollari	89
§3.3 Parametrik sug‘urtalash sxemalarini agrar sohasida qo‘llash innovatsion sug‘urta himoyasi sifatida.....	96
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	108
XULOSA.....	109
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	112

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi, jahon iqtisodiyotida raqobat ustunligi mavjud tashkilotlar sonining ko'payishi, global iqtisodiy munosabatlarda kiberxavfsizlik muammolarini hal etish hamda sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirish sug'urta sohasi va sug'urta tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyaga ega. «Xalqaro sug'urta nazorati assotsiatsiyasi (IAIS) 2023 yil global sug'urta bozori hisobotida (GIMAR) jahon sug'urta bozoridagi asosiy xavf va tendensiyalar, global sug'urta mukofotlarining 90 foizdan ortig'ini qamrab oluvchi 60 ga yaqin yirik xalqaro sug'urta guruhlaridan to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, iqlim o'zgarishi va kiber jinoyatchilik kabi omillar tufayli global risklarning soni ham, ularning qiymati ham ortib bormoqda, bu tendensiyalar sug'urta sohasiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2023 yilda jahon sug'urta bozori hajmi qariyb 6 trln. AQSH dollarini tashkil etdi va 2026 yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 8,4 trln. AQSH dollarini tashkil qilishi prognoz qilinmoqda». Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, sug'urtaning aholi turmush farovonligini oshirishda hamda iqtisodiy muammolarni hal qilishda roli va ahamiyati tengsizdir. Sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro amaliyotda keng miqyosda tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda.